

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI  
INSTITUTI**

**ABZOIROV ORTIQ XONIMQULOVICH**

**LINTER MASHINASI ARRALARARO QISTIRMASINING  
KONSTRUKTIV KO'RSATKICHLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va  
robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**Abzoirov Ortig Xonimqulovich**

Линтер mashinasi arralararo qistirmasining konstruktiv  
ko'rsatkichlariniasoslash.....3

**Abzoirov Ortig Xonimqulovich**

Обоснование конструктивных параметров междупильной прокладки  
линтерной машины.....21

**Abzoirov Ortig Xonimqulovich**

Substantiation of the design parameters of the inter-saw spacer of a linter  
machine.....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....42**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI  
INSTITUTI**

**ABZOIROV ORTIQ XONIMQULOVICH**

**LINTER MASHINASI ARRALARARO QISTIRMASINING  
KONSTRUKTIV KO'RSATKICHLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va  
robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/T1763 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muxammadiev Davlat Mustafaevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xakimov Sherqul Sherg'ozievich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Daliev Shuxrat Latibjonovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Etakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «07» noyabr soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: [mail@titli.uz](mailto:mail@titli.uz), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 186-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5. Tel.: (+99871) 253-08-08).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 25 » oktabr kuni tarqatildi.  
( 2023 yil «25» oktabrdagi 186- raqamli reestr bayonnomasi).



**X.H.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., professor



**A.Z.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda tabiiy mahsulotlardan biri hisoblangan paxta tolasiga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda. Paxta bo'yicha xalqaro konsultativ qo'mita (ICAC) ning ma'lumotlariga ko'ra, jahon paxta iste'moli 2022/23 yilgi mavsumda 24,91 mln tonnani tashkil etadi, bu 2021/22 yilgi mavsumdan 3,1 foizga kam. Bu pasayish qisman global pandemiyadan qo'rqish bilan bog'liq. Dunyoda paxta ekiladigan maydonlar o'rtacha 32,4 mln. gektarni, ishlab chiqarilayotgan tola miqdori esa 25,96 mln. tonnani tashkil etadi<sup>1</sup>. Shu jihatdan paxta tozalash sanoatini yangi resurstejamkor texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, mahsulot tannarxini kamaytirishga va jahon paxta bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda paxtani dastlabki ishlash texnologik mashinalarini takomillashtirishning ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, paxtani dastlabki ishlashning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish, chigitdan paxta tolasini ajratish, chigitni qayta ishlash hisobiga momiq ajratish uskunasining ishchi qismlari parametrlarini aniqlash va linterlash mashinasining ish unumdorligini oshirish, resurstejamkor qismlar bilan jihozlash, mashinaning ekspluatatsion ishonchliligini takomillashtirish natijasida olinayotgan momiq tabiiy sifatini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga yangi konstruksiyadagi resurstejamkor arralararo qistirmasini ishlab chiqish, uning parametrlarini asoslash, momiq sifatini saqlash, samaradorligini oshiruvchi resurstejamkor qismlar bilan ta'minlash va energiya sarfini kamaytirish muhim hisoblanadi.

Respublikamizda paxtaga dastlabki ishlov beradigan texnologik mashinalar va asbob-uskunalarning resurstejamkor ishchi qismlari va qurilmalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mahalliy xom-ashyolarni, jumladan «...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga oshirish»<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, paxta tozalash sanoatida yuqori unumdorlikka ega bo'lgan linter mashinalarini samarali resurstejamkor texnologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2021 yil 16 noyabrdagi PF-14-son «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-son «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-

<sup>1</sup> Cotton: World Statistics. <http://www.ICAC.org>; <http://www.statica.com>.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги Фармони.

tadbirlari to'g'ricida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirligi Mahkamasining 2020 yil 22-iyundagi VM-398-son «Paxta xom ashyosini yetishtirish va qayta ishlash kooperatsiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'ricida» gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Paxtani dastlabki ishlashda chigitdan momiq ajratish texnologiyasini nazariy va amaliy o'rganish va tadqiq etish bilan horijda Jr.Mangaialardi, J.Gino, W.Stanley, D.Michael, S.E.Anthony, J.Prise, A.C.Gruffin va boshqa olimlar shug'ullanishgan.

Paxta chigitidan momiq ajratish bo'yicha nazariy fundamental masalalarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar Respublikamiz olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, D.A.Shepelevich, B.A.Levkovich, S.P.Ivanov, G.I.Miroshnichenko, U.A.Arifov, V.V.Dyachkov, R.V.Korabelnikov, A.E.Lugachev, E.K.Nuraliev, Yu.A.Maxmudov, K.Iskandarov, R.Sh.Sulaymonov, B.Ya.Kushakeev, M.M.Ochilov A.Bekmuxammedovlar va arralararo qistirmalari bo'yicha P.N.Tyutin, A.Juraev, A.Artukmetov, M.M.Agzamov, D.M.Muxammadiev, F.X.Ibragimov va boshqalar tomonidan bajarilgan

Ta'kidlash joizki, linter mashinasi konstruksiyasini modernizatsiya qilish bo'yicha bir qator ishlar o'tkazilganligiga qaramasdan uni takomillashtirish bo'yicha barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagan. Bugungi kunda momiq olish texnologik jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarda yangi yo'nalishlar asosida linter mashinasi texnologiyasini o'zgartirishning samarali echimi topilmaganligi va resurstejamkor mashina ishlab chiqish va ishchi qismlari parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti ilmiy tadqiqot ishi rejasining **IL-21091375** «Linter mashinalari arralararo qistirmasining konstruktiv ko'rsatkichlarini asoslash» mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Linter mashinasining ish unumdorligini va arrali disklar hamda kolosniklar ishlash muddatini oshirish maqsadida arralararo qistirmalarning yangi resurstejamkor konstruksiyasini va parametrlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

linter mashinasi texnologik jarayonini tahlil qilish va linter mashinasi uchun yangi konstruksiyadagi energiya va resurstejamkor arralararo qistirmani ishlab chiqish;  
po'lat St.3 va alyuminiy AK5M2 qotishmadan tayyorlangan arralararo

qistirmalarning tebranish dinamikasini tahlil qilish;

yangi konstruksiyadagi po'lat St.3 va mavjud alyuminiy AK5M2 qotishmadan tayyorlangan arralararo qistirmalarni mustahkamlikka hisoblash va tajribaviy sinash; energiya sarfini kamaytiruvchi va resurstejamkor yangi konstruksiyadagi arralararo qistirmaning samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida paxtani dastlabki ishlash jarayonida qo'llaniladigan linterlash mashinasining arralararo qistirmasi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** linter mashinasi arralararo qistirmasining konstruksiyasi, uning hisob sxemalari va arrali silindr qismlari harakatining bog'lanishlarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika asoslari, mashina va mexanizmlar nazariyasi, matematik modellash, tajriba ishlarini rejalashtirish va tajriba ma'lumotlariga ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

linter mashinasi uchun resurs va energiyatejamkor tashqi va ichki diametrlar o'rtasida ikki tomoni ochiq teshikli St.3 po'lat arralararo qistirmaning yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

linter mashinasi arralararo qistirmasining geometriyasi, massasi va tayyorlanadigan materiallarini hisobga olingan holda radial tebranishlar o'zgarishining bog'lanishlari nazariy xisoblashlar asosida aniqlangan;

yangi konstruksiyadagi St.3 po'lat arralararo qistirma mustahkamlikka hisoblangan va mexanik xususiyatlari solishtirma sinash natijasida deformatsiyaga qarshiligi 44,4% ga oshishi aniqlangan;

linter mashinasi arralararo qistirmalari harakatining o'zgarish bog'lanishlari aniqlangan, arrali silindrning texnologik qarshiliklarini hisobga olgan holda, arrali silindr aylanishining kritik chastotasi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

linter mashinasi arralararo qistirmasining dinamik ko'rsatkichlari uning geometriyasi, massasi va tayyorlanadigan materialini hisobga olingan holda aniqlash usuli takomillashtirilgan;

yangi konstruksiyadagi resurstejamkor arralararo qistirmali linter mashinasining arrali silindri takomillashtirilgan va uning kritik burchak tezliklari texnologik qarshiliklarni hisobga olgan holda aniqlangan;

mustahkamligi bo'yicha ham hisobiy, ham tajribaviy tadqiqotlar natijasida tasdiqlangan, alyuminiydan tayyorlanganga nisbatan ustuvor ko'rsatkichlarga ega bo'lgan resurstejamkor po'lat arralararo qistirma tavsiya etilgan.

**Olingan natijalarning ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi paxta tozalash mashinalari yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va tajribaviy natijalarning mosligi, natijalarni solishtirish va baholash mezonlari hisobga olinib, sinovdan o'tkazish va joriy etishdagi ijobiy natijalar, ularning adekvatligi, olib borilgan tadqiqotlar natijalari va qaralayotgan fanlar doirasida qiyosiy tahlilning ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arralararo qistirmasi radial tebranishlari dinamikasi va energetik ko'rsatkichlari, shuningdek arralararo qistirmalarning mustahkamlik ko'rsatkichlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tola sifatini saqlagan holda arralararo qistirmalarning optimal parametrlari ishlab chiqilganligi, linter arrali silindrini yig'ish aniqligini oshirilganligi, arralararo qistirmalarning energiya va resurstejamkor konstruksiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Linter arralararo qistirmaning takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalari asosida:

linter mashinalari uchun arralararo qistirmaning yangi konstruksiyasi bo'yicha Intelektual mulk markazining ixtiroga patenti olingan (Paxta tozalash mashinalari uchun arralararo qistirma, № IAP06691-2021 y.) va ishlab chiqarishga joriy qilingan. Linter mashinasi arralararo qistirmasining yangi konstruksiyasi «APK Bo'ka» MCHJ XK tizimidagi Bo'ka paxta tozalash korxonasida joriy kilingan (*«APK Bo'ka» MCHJ XK tizimidagi Bo'ka paxta tozalash korxonasining 2022 yil 1 martdagi sinov va joriy qilish dalolatnomalari, "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJning 2022 yil 8 apreldagi 01-11/112 –sonli xati*). Natijada arrali silindrning energiya sarfini 10,8% ga kamaytirish va arralararo qistirmaning resurstejamkorligi oshishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro, 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan. SHulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola va O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk agentligining ixtirosiga 1 ta patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Linterlash texnikasi va texnologiyalarining analitik tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida MDH va xorij linter mashinasi konstruktsiyalari tahlil qilingan. Mahalliy va chet elda ishlab chiqilgan linterlash jarayonida mavjud konstruktsiyalari tahlili mahalliy ishlab chiqarilgan arralararo qistirmalar arralar koordinatsiyasining aniqligini ta'minlay olmasligini ko'rsatdi.

Linterlash asosiy texnologik mashinasi konstruktsiyasini takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlar olib borilganligiga qaramasdan, uni takomillashtirish bo'yicha mavjud zahiralardan, xususan arralararo qistirma ishonchligini oshirish nuqtai nazaridan disk va halqa ko'rinishidagi yangi konstruktsiya yaratish imkoniyatidan to'liq foydalanilmagan.

Dissertatsiyaning «**Linter mashinasi arralararo qistirmalarini tebranishga hisoblash**» ikkinchi bobida yuqorida qayd etilgan nuqsonlarni bartaraf etish uchun arralararo qistirmaning yangi konstruktsiyasi taklif qilingan (1-rasm). Bunda val o'lchamidagi teshikli disk va kontsentrik joylashgan belbog' mustahkam St.3 markali po'latdan tayyorlangan bo'lib, diskning tashqi diametri to'g'ri tishli shlitsalar ko'rinishida, kontsentrik joylashgan belbog' esa disk va halqani birlashtirish uchun perimetr bo'ylab joylashgan teshiklardan iborat halqa shaklida yasalgan. Yangi konstruktsiyadagi arralararo qistirmaning konstruktiv o'lchamlari yuqori aniqlikda tayyorlanganligi hisobiga umrboqiyli va resurstejamkorligini oshirish imkoni yaratilgan.




**1-rasm. Arralararo qistirmaning yangi konstruktsiyasi**


Arralararo qistirmaning konstruktiv parametrlarini tanlash uchun uning inertsiya momentini aniqlash zarur (2-rasm). U o'lcham va vaznga bog'liq bo'lib, vazn esa qistirma tayyorlangan materialga bog'liqdir.

Biz St.3 va AK5M2 materiallardan foydalanishni taklif qildik, chunki ular standart materiallardan hisoblanadi. Ular uchun kontakt qalinligi  $\delta$  ga bog'liq holda arralararo qistirmaning inertsiya momenti o'zgarishi grafigi qurildi (3-rasm).

Grafik tahlili shuni ko'rsatdiki, St.3 po'lat materialdan bir xil vazndagi arralararo qistirmalarni tayyorlash uchun kontaktning zarur qalinligi  $\delta = 0.0015$  m ni tashkil qilishi lozim.




**2-rasm. Linter mashinasi arralararo qistirmasini hisoblash sxemasi**



**3-rasm. Linter mashinasi arralararo qistirmasi inertsiya momentining kontaktdagi aylanalar qalinligiga bog'liq o'zgarishi**

Arralararo qistirmaning taklif qilinayotgan konstruksiyasining samaradorligini aniqlash uchun uning radial tebranish chastotasini aniqlash lozim (4-rasm). Arralararo qistirmaning uzunlik birligidagi massa  $t_0$ , kundalang kesim yuzasi  $F$ , materialning elastiklik moduli  $E$ ,  $\delta \ll R$  deb qabul qilindi. Tebranishning radial chastotasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:




**4-rasm. Linter mashinasi arralararo qistimasi radial tebranishlar chastotasining ko'ndalang kesim yuzasiga bog'liq o'zgarishi**

$$\omega = \frac{\sqrt{EF / m_0}}{R} . \quad (1)$$

Arralararo qistirmaning radial tebranishlar chastotasini hisoblash alyuminiy AK5M2 (7,52 MN) ga nisbatan St.3 po'lat (12,61 MN) bikrligini 67,6% ga oshirish imkonini berdi. Bundan tashqari, arralararo qistirmaning radial tebranishiga ustuvorligini (AK5M2 - 75547,14 s<sup>-1</sup> va St.3 - 108751,5 s<sup>-1</sup>) 43,95% ga oshgan, bu arrali silindr aylanish chastotasidan (76,44 s<sup>-1</sup>) ancha yuqori ekanligi aniqlandi.

Arralararo qistirma elementini ko'rib chiqamiz (5-rasm). Hamma kuchlarni radiusga proektsiyalab, quyidagini hosil qilamiz:

$$\ddot{u} + \frac{EF}{m_0 R^2} u = \frac{p_0}{m_0} + \frac{p_1}{m_0} \cos \omega t . \quad (2)$$




**5-rasm. Arralararo qistirmalarni hisoblash sxemasi**

O'zgarmas  $p_o$  bosim arralararo qistirmaning radial ko'chishining statik tashkil etuvchisini yuzaga keltiradi. Arralararo qistirmaning barqaror tebranishlari uchun quyidagi tenglik o'rinni:


$$u_1 = \frac{p_1}{m_o \left( \frac{EF}{m_o R^2} - \omega^2 \right)} \quad (3)$$

Cho'zilish va siqlish sharoitidagi arralararo qistirmaning ko'ndalang kesimidagi elastiklik kuchi  $N=EFu/R$  ga teng. Bu erda  $i$  - arralararo qistirma radial deformatsiyasi ( $i$  va  $N$  ning musbat qiymati arralararo qistirmaning cho'zilishiga mos keladi).


Arralararo qistirma radial tebranishlariga doir hisob natijalari St.3 po'latdan tayyorlangan qistirmada ( $5.296 \cdot 10^{-8}$  m), AK5M2 markali alyuminiydan ( $4.646 \cdot 10^{-7}$  m) tayyorlanganga nisbatan 8.7 baravar kam bo'lishini ko'rsatdi (6-rasm).



**6-rasm. Arralararo qistirmaning barqaror radial tebranishlar amplitudasining ko'ndalang kesim yuzasiga bog'liq holda o'zgarishi**



**7-rasm. Xomashyo valigining massasi  $m_1$  ga bog'liq holda arrali silindrning kritik tezligining  $\omega_{kr}$  o'zgarishi**




**8-rasm. Arrali silindrning egilish qattiqligiga  $EJ_x$  bog'liq holda arrali silindr kritik aylanishlar tezligining  $\omega_{kr}$  o'zgarishi**

$$\omega_{kp} = \sqrt{\frac{\pi^4 EJ_x}{l^4 (m_o + m_1)} - \frac{\pi^2 mv^2}{l^2 (m_o + m_1)}}. \quad (4)$$

Arrali silindrning kritik burchak tezliklarini tadqiq qilish arrali silindrning butun uzunligi bo'yicha o'tayotgan xomashyo valigining massasi 0 dan 42 kg/m gacha oshganda kritik burchak tezlikning qiymati 335.784 dan 277.761 rad/s gacha kamayishini (18.0% ga),  $m_1=34.246$  kg/m da  $EJ_x$  arrali silindr valining egilish birligi 100000 dan 1000000 N·m<sup>2</sup> gacha oshishi bilan kritik burchak tezlikning qiymati 90.847 dan 287.285 rad/s gacha oshadi (65.8% ga), bu ko'rsatkich linter mashinasi arrali silindrning kritik burchak tezligi birinchi kritik maydonga yaqinligini ko'rsatdi, ya'ni ( $\omega_r \leq 0.75 \cdot \omega_{1kr}$ —qattiq val) 76.44 rad/s  $\leq$  (251.84–208·32) rad/s ko'rsatdi.

Linter mashinasi arralararo qistirmasining mustahkamligini aniqlash uchun arrali silindrning ishlash qobiliyatiga ta'sir etuvchi yarim to'lqinlar va kritik siquvchi kuchlarni aniqlash zarur (9-rasm). Ular arralararo qistirmasi o'lchamlari va tayyorlangan materialiga bog'liq.



**9-rasm. Silindrsimon aylanma halqa sxemasi.**


Material sifatida St.3 va AK5M2 taklif etilgan, shunday qilib ular standart material hisoblanadi.

Grafiklar tahlili (10-rasm) shuni ko'rsatadiki, linter mashinasining St.3 po'lat arralararo qistirmasini tayyorlash uchun bir xil og'irlikdagi ( $m=0.11673$  kg) kontakt


qalinligi  $h=0.0015$  m ni, AK5M2 dan tayyorlangan arralararo qistirmasini tayyorlash uchun bir xil og'irlikdagi ( $m=0.12617$  kg) kontakt qalinligi  $h=0.003$  m ni tashkil etishi kerak.

Agar arralaro qistirma materiali St.3 po'latdan tayyorlangan bo'lsa,  $E=2 \cdot 10^{11}$  N/m<sup>2</sup>;  $\mu=0.26$ ;  $l=0.00875$  m;  $R=0.07925$  m;  $h=0.0015$  m, undan  $n=0.4672$  (10-rasm) va  $T_{kr}=2263.4$ MPa (11-rasm).

Agar arralaro qistirma materiali AK5M2 alyuminiydan tayyorlangan bo'lsa,  $E=7 \cdot 10^{10}$  N/m<sup>2</sup>;  $\mu=0.34$ ;  $l=0.00875$  m;  $R=0.0785$  m;  $h=0.003$  m, unda  $n=0.3276$  (10-rasm) va  $T_{kr}=1642.3$  MPa (11-rasm).



**10-rasm. Yarim to'liqlar sonining arralararo qistirma devorining qalinligiga bog'liq o'zgarishi**




**11-rasm. Kritik siquvchi kuchning arralararo qistirma devorining qalinligiga bog'liq o'zgarishi**

Arralararo qistirmaning mustahkamligini hisoblashda yarim to'liqlar sonini St.3 uchun ( $n=0.4672$ ) alyuminiy AK5M2 dan ( $n=0.3276$ ) 42,6% ga ko'proq, shuning uchun St.3 ni o'rnatish tavsiya etiladi. Undan tashqari, arralaro qistirmaning kritik siquvchi kuchi mustahkamligi 37.8% ga ortiqiligini ( St.3–  $T_{kr}=2263.4$  MPa va AK5M2 –  $T_{kr}=1642.3$  MPa) ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning uchinchi «**Linter mashinasi arralararo qistirmasi mustahkamligini aniqlash bo'yicha tajriba qurilmasi**» bobida arralararo qistirmalarning deformatsiyalanishiga doir tajriba natijalari keltirilgan. Qistirmalarning deformatsiyasini tajribaviy o'rganishda universal WAW-1000D sinov mashinasidan foydalanilgan.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, qistirma va arra disklari o'rtasidagi tegish maydonining oshishi ishchi zonadagi kuchlanishning kuchayishiga olib keladi. Alyuminiy qotishmali arralararo qistirmalarni arrali silindrga yig'ishda o'q yo'nalishdagi siqish kuchi 4122.3 N ni tashkil etdi. Agar alyuminiy qotishmali qistirmalarning tegish yuzasi 0,00209 m<sup>2</sup> ni hisobga olsak, unda kuchlanish 1,972 MPa ni tashkil etadi (1-jadval). SHu bilan birga, arrali silindrga 1,5 mm qalinlikdagi tegish yuzasi 0,00104 m<sup>2</sup> bo'lgan po'lat belbog'li arralararo qistirmalar o'rnatilganda kerak bo'ladigan siqish kuch 1499,9 N, kuchlanish esa 1,435 MPa (1-jadval).

Arralararo qistirmalarni siqishga sinash natijalari 12-rasmda keltirilgan;  $\sigma=250$  MPa kuchlanishdagi elastik deformatsiya zonasida nisbiy deformatsiya qiymatlari mos ravishda alyuminiy AK5M2 uchun  $\varepsilon=0,368$ ; St.3 (qalinligi 1 mm) –  $\varepsilon=0,379$ ; St.3 (qalinligi 1,5 mm) –  $\varepsilon=0,299$ ; St.3 (qalinligi 2 mm) –  $\varepsilon=0,284$  ga teng.




**12-rasm. Arralararo qistirmalarning siqilishdagi kuchlanish diagrammasi:**  
**a – alyuminiy AK5M2; b – St.3 (qalinligi 1 mm); v – St.3 (qalinligi 1,5 mm);**  
**g – St.3 (qalinligi 2 mm)**

### Linterlash mashinasi qistirmasining deformatsiya va yuklanish miqdorini aniqlash bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar natijalari


№	Qistirma materiali	Qalinligi, mm	Eni, mm	Tegish maydoni, mm <sup>2</sup>	Siqish kuchi, N	Yuklanish, MPa	Defor-matsiya, mm	Farqi, %
1	Alyuminiy (AK5M2)	8,75	3	0,00209	4122,3	1,972	0,36	100,0
2	Stal 3	8,75	2	0,00139	23579,9	16,920	0,09	25,0
3	Stal 3	8,75	1,5	0,00104	1499,9	1,435	0,20	55,6
4	Stal 3	8,75	1	0,00070	3519,6	5,051	0,44	122,2

List qalinligi 2 mm dan 1 mm gacha kamayishi bilan deformatsiya mos ravishda 0,09 mm dan 0,44 mm gacha oshadi. SHuning uchun, linter mashinasiga qistirma ishlab chiqarish uchun qalinligi kamida 1,5 mm bo'lgan po'lat St.3 talab etiladi. Qalinligi 1,5 mm bo'lgan qistirma uchun kuchlanish 1,435 MPa, siqish kuchi esa 1500 N ni tashkil qiladi, bunda deformatsiyaga qarshilik 44,4% gacha oshadi.

Kerakli payvandlash texnologiyasini aniqlash uchun elektr yoyi manbai (MMA usuli - donali elektrodlar) va kempi - karbonat anhidrid (CO<sub>2</sub>) muhitidagi payvandlash ko'rib chiqildi. Ratsional payvandlash texnologiyasini aniqlash uchun qalinligi 1,5 mm va 2 mm bo'lgan belbog'lar tayyorlandi. Qistirmalarni cho'zish bo'yicha tajribaviy tadqiqot uchun (13-14 rasmlar) WAW-1000D universal sinov mashinasi ishlatildi.




a) – elektr yoyli;




b) – kempi.

**13-rasm. 1,5 mm qalinlikdagi St.3 po'lat qistirma lentasining cho'zish diagrammasi**



a) – elektr yoyli;



b) – kempi.

**4-rasm. 2 mm qalinlikdagi St.3 po'lat qistirma lentasining cho'zish diagrammasi**


Elektr yoyi va kempi (karbonat angidrit) yordamida payvandlash qalinligi 1,5 mm va 2 mm bo'lgan po'lat qistirmalar belbog'ini o'rganish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar natijalari elektr yoyi payvandida 1,5 mm namunani 5 mm gacha cho'zish uchun 2820 N, kempida 2900 N, elektr yoyi bilan 2 mm namuna uchun 3260 N va kempda 4440 N ekanligi aniqlandi.

Arra disklarni egilishi jarayonini o'rganish uchun tavsiya etilgan sxema asosida qurilma tayyorlangan (15-rasm). Eksperimental tadqiqotning maqsadi arrali disklarning kolosnikka tegishida qancha kuch sarflanishini o'rganishdir. Buning uchun alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan AK5M2 seriyali qistirmalar va uchun St.3 po'latdan tayyorlangan yangi konstruksiyadagi tavsiya etilgan qistirmalardan foydalanilgan.




**15-rasm. Arrali diskning egilishini o'rganish tajriba stendining fotosurati**

Arrali diskning egilishini o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqot natijalarining tahlili qilish (16-rasm) alyuminiy AK5M2 ga nisbatan St.3 po'lat qistirmada 49 N bilan yuklatilganda egilish 4,5 mm dan 3,5 mm gacha, egilish kuchi 28,6 % ga kamayganligini ko'rsatdi.



a – AK5M2



b – Stal 3

**16-rasm. 0° sektori uchun alyuminiy AK5M2 (a) va po'lat St.3 (b) dan tayyorlangan qistirma va arra diskining radiusi, egilish kuchiga qarab arrali disk egilishining o'zgarishi.**


Tadqiqot natijalari eguvchi kuchning 9,8 N dan 49 N gacha ortishi bilan alyuminiy qistirmali arrali diskning egilish qiymatlari 4,5 mm gacha, po'lat qistirma bilan 3,5 mm egilishini ko'rsatdi. Ushbu natijalar linter mashinasi arrali silindrini yig'ishda yangi konstruktsiyali St.3 po'latdan tayyorlangan arralararo qistirmasidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi, bunda arrali disk egilishga mustahkamligi alyuminiy AK5M2 ga qaraganda 28,6% ga oshirilgan.

To'rtinchi «**Ishlab chiqarish sharoitida yangi konstruktsiyali arralararo qistirmani tekshirish**» bobida 5LP linter mashinasi arrali silindrining arralararo qistirmalariga doir tajriba tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Ishlab chiqarish sharoitida linter mashinasi arrali silindrining arralararo qistirmalarini sinovdan o'tkazish usuli va dasturi ishlab chiqildi.

Arralararo qistirmaning yangi konstruktsiyasi Toshkent viloyatining Bo'ka paxta tozalash korxonasiga mantaj qilindi.

5 LP linter mashinasi arralararo qistirma tajriba nusxasini Bo'ka paxta tozalash korxonasida tajriba sinovidan o'tkazish natijasida komissiya arralararo qistirmalar linterlashning texnologik jarayonlarini qoniqarli bajarayotganini aniqladi.

Linter mashinasi arralararo qistirmaning yangi konstruktsiyasi «APK Bo'ka» MCHJ XK tizimidagi Bo'ka paxta tozalash korxonasida joriy kilingan («APK Bo'ka» MCHJ XK tizimidagi Bo'ka paxta tozalash korxonasining 2022 yil 1 martdagi sinov va joriy qilish dalolatnomalari, "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJning 2022 yil 8 apreldagi 01-11/112 –sonli xati). Natijada arrali silindrning energiya sarfini 10,8% ga kamaytirish va arralararo qistirmaning resurtejamkorligi oshishi imkoni yaratilgan (17-rasm).



**17-rasm. 160 arrali silindr (a) o'rnatilgan 5 LP linter mashinasi (b).**

Linter mashinasining yangi konstruktsiyali arralararo qistirma sinov namunasi Bo'ka paxta tozalash korxonasiga tadbiiq qilingan. Bunda arrali silindr elektrodvigatelining quvvat sarfi 10,8 kVt ni va arrali silindr ishchi qismining uzunligi 1565 mm ni tashkil etdi. 5LP linter mashinasi po'lat qistirmalarining sanoat sinovlari natijasida po'lat qistirmalari linterlash jarayoni talablariga javob berishi aniqlandi. Bundan tashqari chigit bo'yicha ish unumdorligi 550 kg/soat, arrali silindrning quvvat sarfi 10,8 kVt, bitta 5LP linter uchun kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 4,312 mln so'mni tashkil etdi.

## XULOSALAR

1. Asosiy texnologik mashina-linter konstruksiyasini modernizatsiya qilish bo'yicha bir qator ishlar o'tkazilganligiga qaramasdan uni takomillashtirish bo'yicha barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagan, arralararo qistirmaning mustahkamligini oshirish maqsadida uning diski va halqa ko'rinishidagi yangi konstruksiyasini yaratish maqsadga muvofiq.

2. AK5M2 markali alyuminiydan tayyorlangan arralararo qistirmaning mavjud kamchiliklarini bartaraf etish uchun St.3 markali po'latdan tayyorlangan qistirmalar taklif etildi.

3. Arralar orasidagi qistirma bir xil massada bo'lishini ta'minlash uchun St.3 dan tayyorlangan qistirmaning arra bilan tegish yuzasining qalinligi  $\delta=0.0015$  m ga teng bo'lishi kerak.

4. Arralararo qistirmaning radial tebranishlar amplitudasini hisoblash vertikal yo'nalishdagi tebranishni St.3 markali po'latdan tayyorlangan qistirmada ( $5.296 \cdot 10^{-8}$  m) AK5M2 markali alyuminiydan tayyorlanganga nisbatan ( $4.646 \cdot 10^{-7}$  m) 8.7 martga kamaygan.

5. Arrali silindrning kritik burchak tezligini hisobi shuni ko'rsatdiki, arrali silindrning butun uzunligi bo'yicha o'tayotgan xomashyo valigining massasi 0 dan 42 kg/m gacha oshganda, kritik burchak tezlikning qiymati 335.784 dan 277.761 rad/s gacha (18.0% ga) kamayadi.

6. Arralararo qistirmaning mustahkamligini hisoblashda yarim to'lqinlar sonini St.3 uchun ( $n=0.4672$ ) alyuminiy AK5M2 dan ( $n=0.3276$ ) 42,6% ga ko'proq bo'lganligi uchun o'rnatish tavsiya etiladi. Undan tashqari, arralaro qistirmaning kritik siquvchi kuchi mustahkamligi 37.8% ga ortiqqligini (St.3 uchun –  $T_{kr}=2263.4$  MPa va AK5M2 uchun –  $T_{kr}=1642.3$  MPa) ko'rsatdi.

7. Olib borilgan izlanishlardan aniqlanishicha list qalinligii 2 mm dan 1 mm gacha kamayishi bilan deformatsiya mos ravishda 0,09 mm dan 0,44 mm gacha oshadi. SHuning uchun, linter mashinasi uchun qistirma ishlab chiqarishda qalinligi kamida 1,5 mm bo'lgan po'lat talab qilinadi. Qalinligi 1,5 mm bo'lgan qistirma uchun kuchlanish 1,435 MPa va siqish kuchi 1500 N ni tashkil qildi bunda deformatsiyaga qarshilik 44,4% gacha oshdi.

8. Elektr yoyi va kempi yordamida payvandlangan qalinligi 1,5 mm va 2 mm bo'lgan po'lat qistirma belbog'larini o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalarini tahlili shuni ko'rsatdiki 5 mm gacha cho'zish uchun elektr yoy bilan payvandlangan 1.5 mm namunada 2820 N, kempida 2900 N, elektr yoyi bilan 2 mm namunada 3260 N va kempida 4440 N kerak bo'ladi.

9. Tadqiqot natijalari eguvchi kuchning 9,8 N dan 49 N gacha ortishi bilan alyuminiy qistirmali arrali diskning egilishi 4,5 mm, po'lat qistirmada 3,5 mm ekanligini ko'rsatdi.

10. Olib borilgan tadqiqot natijalari linter mashinasi arrali silindrini yig'ishda yangi konstruksiyali St.3 po'latdan tayyorlangan arralararo qistirmadan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi, bunda arrali diskning egilishga mustahkamligi alyuminiy AK5M2 ga qaraganda 28,6% ga kam ekanligi aniqlandi.

11. Linter mashinasining yangi konstruktsiyali arralararo qistirmasi sinov namunasi linterlash texnologik jarayonini qoniqarli bajardi. Bunda arrali silindr elektrodvigatelining quvvat sarfi 10.8 kVt ni va arrali silindr ishchi qismining uzunligi 1565 mm ni tashkil etdi.

12. 5LP linter mashinasi po'lat qistirmalarining sanoat sinovlari natijasida po'lat qistirmalari linterlash jarayoni talablariga javob berishi aniqlandi. Bundan tashqari chigit bo'yicha ish unumdorligi 550 kg/soat, arrali silindrning quvvat sarfi 10,8 kVt, bitta 5LP linter uchun kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 4,312 mln so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ИНСТИТУТ МЕХАНИКИ И СЕЙСМОСТОЙКОСТИ  
СООРУЖЕНИЙ**

**АБЗОИРОВ ОРТИК ХОНИМКУЛОВИЧ**

**ОБОСНОВАНИЕ КОНСТРУКТИВНЫХ ПАРАМЕТРОВ  
МЕЖДУПИЛЬНОЙ ПРОКЛАДКИ ЛИНТЕРНОЙ МАШИНЫ**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроники и  
робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2020.2.PhD/T1763.**

Диссертация выполнена в Институте механики и сейсмостойкости сооружений Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ташкентского института текстильной и легкой промышленности ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Мухаммадиев Давлат Мустафаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Хакимов Шеркул Шергозиевич**  
доктор технических наук, профессор

**Далиев Шухрат Латибжонович**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «07» ноября 2023 года в 11<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100, г.Ташкент, ул. Шохжахон, 5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2- этаж, аудитория 222, тел.: (+99871) 253-08-08, факс 253-36-17, e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за №186). (Адрес 100100, г.Ташкент, ул. Шохжахон-5, Тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.)

Автореферат диссертации разослан «25» октября 2023 г.  
(реестр протокола рассылки № 186 от «25» октября 2023 г).



**Х.Х.Камилова**

Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.З. Маматов**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**

Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (фалсафа доктори (PhD) диссертацияси аннотацияси)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Потребность в хлопковом волокне, которое является одним из натуральных продуктов в мире, возрастает с каждым годом. По данным Международного консультативного комитета по хлопку (ICAC), мировое потребление хлопка за сезон 2022/23 составит 24,91 млн тонн, что на 3,1 процента меньше, чем за сезон 2021/22. Снижение частично связано с опасениями глобальной рецессии. В мире средняя площадь выращивания хлопка составляет 32,4 млн. га, а количество произведенного волокна составляет 25,96 млн. тонна»<sup>1</sup>. В связи с этим большое значение имеет оснащение хлопкоочистительной промышленности новой ресурсосберегающей техникой и технологиями, снижение себестоимости продукции и выпуск конкурентоспособной продукции на мировом хлопковом рынке.

В мире ведутся масштабные научно-исследовательские работы по созданию научной основы совершенствования технологических машин первичной обработки хлопка. В связи с этим необходимо разработать научно обоснованную технологию первичной обработки хлопка, отделения хлопкового волокна от семян, определить параметры рабочих органов оборудования для отделения ворса за счет обработки семян, повышение производительности линтерной машины, оснащение ее ресурсосберегающими деталями и сохранение естественного качества получаемого волокна в результате повышения эксплуатационной надежности машины. При этом важно разработать ресурсоэффективную межпильную прокладку новой конструкции, обосновать ее параметры, сохранить качество волокно, обеспечить ресурсоэффективные детали, повышающие коэффициента полезного действия, снижающие энергопотребление.

В настоящее время в нашей Республике особое внимание уделяется созданию ресурсосберегающих рабочих органов и устройств технологических машин и оборудования для первичной обработки хлопка. . В Стратегии развития Нового Узбекистана, предусмотренного на 2022-2026 годы, установлены важные задачи, в том числе, такие как: «Продолжение промышленной политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики и на увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, увеличение объема производства промышленной продукции в 1,4 раза и поставлена задача увеличения объема производства продукции текстильной промышленности в 2 раза»<sup>2</sup>. При реализации этих задач, в том числе, важно создать эффективную ресурсосберегающую технологию линтерных машин высокой производительности в хлопкоочистительной промышленности.

Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-16 от 16 ноября 2021 года «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров», а также план мероприятий, направленных на реализацию данной деятельности,

<sup>1</sup> Cotton: World Statistics. <http://www.ICAC.org>; <http://www.statica.com>.

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60

